JANUBIY O‘ZBEKISTONDA AGRAR SOHADA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR VA UNING SOHA INFRATUZILMASIGA TA’SIRI

Kadirova Yakitjan Buvabaevna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Jahonning rivojlangan davlatlarida amalga oshirilayotgan agrar sohadagi islohatlar innovatsion texnologiyalarni keng jalb etish, zamonaviy agrar servislarni joriy etish, oziq-ovqat muammolarni bartaraf etish sohasida invesiyalarni jalb qilish muhim dolzab masala hisoblanmoqda. Jumladan bugungi O‘zbekistonda ham innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga, jalb etish asosida jahon standartlariga javob beradigan agrasersizni joriy qilish sohasida ma’lum yutuqlariga erishilmoqda. Maqolada Janubiy O‘zbekistonda agrar sohada amalga oshirilgan islohotlar va uning soha infratuzilmasiga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: klaster, fermer xo‘jaliklari, shirkat xo‘jaliklari, fermerlar uyushmasi, agrobiznes, jamoa xo‘jaligi, islohotlar, infratuzilma.

Аннотация: Реформы в аграрном секторе, реализуемые в развитых странах мира, считаются важным вопросом широкого вовлечения инновационных технологий, внедрения современных сельскохозяйственных услуг, привлечения инвестиций в сферу устранения продовольственных проблем. В частности, в сегодняшнем Узбекистане достигаются определенные успехи в области внедрения агропромышленной продукции, соответствующей мировым стандартам, на основе производства инновационных технологий. В статье анализируются реформы, реализуемые в аграрном секторе Южного Узбекистана, и их влияние на инфраструктуру отрасли.

Ключевые слова: кластер, фермерские хозяйства, кооперативные хозяйства, фермерское объединение, АПК, колхоз, реформы, инфраструктура.

Annotation: reforms in the agrarian sector implemented in the developed countries of the world are considered to be an important issue in the wide involvement of innovative technologies, the introduction of modern agricultural services, and the attraction of investments in the field of eliminating food problems. In particular, in today's Uzbekistan, certain achievements are being made in the field of introducing agrocer-free products that meet world standards based on the production of innovative technologies. The article analyzes the reforms implemented in the agrarian sector in South Uzbekistan and its impact on the infrastructure of the sector.

Key words: cluster, farms, cooperative farms, farmers' association, agribusiness, collective farm, reforms, infrastructure.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hal qiluvchi bo‘g‘ini qishloq xo‘jaligi sohasidagi agrar soha mutaxassislari, xodimlari va ishchi-xizmatchilarini manfaatlarini hisobga olib amalga oshirildi. Buning sababi shundaki, O‘zbekiston aholisining 64 foizidan ko‘prog‘i qishloqda yashar, shuningdek, aholini oziq-ovqat, sanoatni esa zarur bo‘lgan xom ashyo bilan ta’minlaydigan tarmoq hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligida zamon ruhiga mos islohotlar o‘tkazish davr talabiga aylandi.

Respublikada o‘tkazilgan agrar islohotlar natijasida fermer xo‘jaliklari tashkil topa boshladi. Fermer xo‘jaliklarni tashkil etishdan maqsad yangicha ishlash va iqtisodiy manfatdorlikni oshirish uchun agrar sohada katta tajribaga ega rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish davlat dasturini asosiy yo‘nalishi qilib olingan edi. Surxondaryo viloyatidagi birinchi fermer xo‘jaliklari 1989- yilda tashkil etildi. Termiz tumanidagi «Do‘stlik» jamoa xo‘jaligi negizida tuzilgan ilk fermer xo‘jaliklari birinchi yildayoq katta muvaffaqiyatlarni

qo‘lga kiritishdi. Ularning ishi O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan yuqori baholandi. Respublikamizda «Surxondaryo dehqonchilik maktabi» degan yangi faxrli nom vujudga keldi.

2003-yilning 24-martida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentiniig “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida” gi farmoni e’lon qilindi va ushbu farmonga muvofiq fermerlarga yer maydonlari 50 yillik muddatda meros qoldirish huquqi bilan ijaraga berilishi belgilangan edi. Surxondaryo viloyatida qishloq xo‘jalik sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida O‘zbekistonning boshqa hududlari kabi agrar masalada yangi boshqaruv tizimi shakllanib, yerga egalik qilish tizimida jahonni rivojlangan mamlakatlari tajribalardan foydalanish imkoniyatlari vujudga keldi.

Fermer xo‘jaliklarining tashkil topish va uning moddiy texnik jihatdan mustahkamlanishi tufayli qishloq xo‘jalik mahsulotlarini aholi talab ehtiyojlari asosida yetkazib berishdagi ulushlari fermer xo‘jaliklari hisobida oshib bordi. Surxondaryo viloyatida tayyorlanayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini aholi jon boshiga o‘rtacha taqsimlaganda fermerlarning ulushi viloyat dehqon xo‘jaliklarida tayyorlangan mahsulotlarning jami holatini taqqoslaganda viloyat bo‘yicha 2007-yilda 37,3, 2008- yilda 34,8, 2009- yilda 37,2, 2010- yilda 35,2 2011- yilda 34,5 foizni tashkil qildi.

Shunga ko‘ra Qiziriq tumanida 9 ta shirkat xo‘jaliklari uyushmasi, 284 ta fermer xo‘jaliklari, 11 ta fermer xo‘jaliklari uyushmalari, 963 ta pudratchilarning asosiy qismi paxta tayyorlash bo‘yicha yillik rejalarini bajardilar[3;34].

Fermer va shirkat xo‘jaliklari bir vaqtda faoliyat yuritgan davrda fermer xo‘jaliklaridagi mehnat va mahsulot yetishtirish shirkat xo‘jaligiga nisbatan ancha o‘sishga erishganligi quyidagi raqamlarda ko‘rish mumkin. Surxondaryo viloyat shirkat xo‘jaliklari 2001-yilda 64095 tonna poliz mahsulotlari yetishtirgan bo‘lsa, 2005-yilda kelib 63548 tonnaga pasaydi. Fermer xo‘jaliklari 2001-yilda 3211 tonna poliz mahsulotlari yetishtirgan bo‘lsalar, 2005-yilda kelib bu raqam 3788 tonnaga yetkazildi. Shirkat xo‘jaliklari 2001-yil viloyatda 48941 tonna ho‘l meva topshirishgan bo‘lsa, 2005-yilga kelib 44814 tonnaga kamaygan. Fermer xo‘jaliklarida 2001-yil 14489 tonna ho‘l meva yetishtirgan bo‘lsalar, 2005 yilga kelib 16632 tonnadan oshdi[6].

Shu bilan birga, shirkat xo‘jaliklari ham o‘z faoliyatlarini yaxshilab, davlatga ko‘proq mahsulot yetkazib bera boshladilar. Chunonchi, 2003-yilda Surxondaryodagi shirkat xo‘jaliklarida 522857 tonna don mahsulotlari yetishtirilgan bo‘lsa, fermer xo‘jaliklarida bu ko‘rsatkich 422946 tonnani tashkil qildi. 2005- yilda shirkat xo‘jaliklari 571625 tonna don, 86672 tonna kartoshka, 235892 tonna sabzavot, 36548 tonna poliz mahsulotlarini yetkazib berishgan bo‘lsalar, fermer xo‘jaliklari 466819 tonna don, 659 tonna kartoshka, 11029 tonna sabzavot, 3788 tonna poliz mahsulotlarini topshirishdi[7].

Garchi, 2003-2007-yillarda shirkat xo‘jaliklari mahsulot yetishtirishni ko‘paytirgan bo‘lsalarda, bu tarmoq rivojlanmay qoldi. Sababi, shirkat xo‘jaliklari eskicha ish yuritishdan voz kechmagan, rentabellik darajasi past, buning ustiga davlat uchun ancha qimmatga tushar edi. Shuning uchun asosiy e’tibor fermer xo‘jaliklariga qaratildi.

Fermer xo‘jaliklarining afzalligi Surxondaryo viloyatidagi «Surxon» suvdan foydalanuvchi fermerlar uyushmasi (SFU) misolida ko‘rindi. Uyushma a’zolari 2003-yilda paxtachilik, g‘allachilik, umuman barcha tarmoqlardan 2 milliard so‘mdan ko‘proq daromad ko‘rishdi. «Surxon» SFU davlat tasarrufida bo‘lgan kezlarda 8 ming tonnadan ko‘proq paxta yetishtirishgan bo‘lsa, fermerlik jamoalariga o‘tilganidan so‘ng ham mahsulot ishlab chiqarish hajmi kamaymadi. 2003- yili 2284 gektar maydonda g‘o‘za o‘stirgan 117 ta fermerlik jamoalarining barakali mehnati tufayli dalalardan rejalashtirilgan 7750 o‘rniga 9850 tonna sifatli xom-ashyo yig‘ishtirib olindi[11].

«Surxon» SFU mehnatkashlari g‘allachilikda ham sezilarli yutuqlarni qo‘lga kiritishdi. 2003-yilda 5900 tonna don yetishtirilib, belgilangan reja ortig‘i bilan uddalandi. Donning bir qismi uni yaratgan

dehqonlarga bo‘nak sifatida, bir qismi esa ish haqi sifatida tarqatildi. Faqat g‘allachilikning o‘zidan 347 million so‘mdan ko‘proq daromad ko‘rildi[8].

Fermer xo‘jaliklari erishayotgan yutuqlar viloyat hududida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish sur’atlarini tezlashtirdi. Surxondaryo viloyatida 2001-yili 3438 ta fermer xo‘jaligi tashkil etilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2005-yilda kelib 6677 taga yetdi. Viloyatda fermer xo‘jaliklarining yer maydoni ham ko‘payib, 2001-yilgi 69827 gektardan 2005-yilgi 256865 gektarga yetdi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2005- yilda fermer xo‘jaliklarining jami sug‘oriladigan ekin maydonlari 135516 gektarni tashkil etib, shundan 57034 gektariga donli ekinlar, 72141 gektar yerga paxta ekildi[9].

Surxondaryo fermerlari O‘zbekiston g‘alla mustaqilligini ta’minlashda katta hissa qo‘shishdi. Ma’lumki, yurtimiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab oziq-ovqat xavfsizligiga alohida e’tibor qaratdi. Buning uchun agrar sohada paxta yakka hokimligidan voz kechilib, paxta maydonlari 2 million gektardan 1,5 million gektarga qisqartirildi, donli ekinlar maydoni 1,2 millionga gektarga kengaytirildi[4].

Respublikamizda o‘tkazilgan islohotlar natijasida fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining barcha turlarini yetishtirib, yurtimiz dasturxoni to‘kin bo‘lishiga hissa qo‘shdilar. Fermerlar son jihatdan ko‘payib, 2006-yilda Respublika bo‘yicha 190 mingga yaqinlashdi. Ularda jalb etilgan qishloq xo‘jaligi mutaxassislarining umumiy soni 1,4 million kishiga yetdi. Birgina 2006-yilning o‘zida 666 ta shirkat xo‘jaligini qayta tashkil etish hisobidan 74 mingta fermer xo‘jaligi tuzildi, ularning yarmidan ko‘pi meva-savzavotchilikka ixtisoslashdi. Meva-savzavotchilik bilan shug‘ullanadigan 200 ta agrofirma tashkil etildi[2;162].

Surxondaryo viloyat fermer xo‘jaliklari lizing kompaniyasi xizmatlaridan unumli foydalandilar. Birgina 2009-yilning 4 oyi ichida viloyatga 800 tadan ziyod texnika olib kelindi. Aytish kerakki, lizingga harid qilinadigan texnika vositalari to‘lov muddati uzaytirildi. Fermer oladigan texnikasi qiymatining 25 foizini oldindan to‘laydi. Qolgan qismini o‘n yil muddatda peshma-pesh uzib boradi[12].

O‘z-o‘zidan tushunarliki, eng ilg‘or ish usuli ham sohada so‘nggi bir necha o‘n yillarda to‘plangan muammolar girdobidan olib chiqishga qodir emas. Buning uchun ham uquv, bilim, yangicha dunyoqarash va albatta, fidoyilik talab qilinadi. Yangicha sharoitda klaster tizimini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 17-apreldagi PF-5708 son «Qishloq xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Farmoni qabul qilindi[1]. Mazkur Farmonda «agrobiznesning klaster modelini keng joriy etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, klasterlash jarayonining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha investisiya loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish» muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi. Bu esa klasterlarni shakllantirish bilan bog‘liq normativ-huquqiy, tashkiliy-texnologik, moliyaviy-iqtisodiy va boshqa masalalarning ilmiy-uslubiy yechimlarini topishning dolzarbligidan dalolat beradi[5;3].

Garchi paxta-to‘qimachilik klasterlarimiz tashkil etilganidan buyon hali ko‘p vaqt o‘tmagan bo‘lsa-da, ularning aholi turmush darajasini oshirishdagi ahamiyati yaqqol sezilyapti. Ilgarilari, fermerlar bevosita «O‘zpaxtasanoat» bilan shartnoma tuzib, ularni paxta tolasi bilan ta’minlab berar, «O‘zpaxtasanoat»dan esa to‘qimachilik korxonalari paxta sotib olardi. Endilikda fermer va to‘qimachilik korxonasi o‘rtasida uzviylik paydo bo‘lmoqda. Klaster tizimi ikkita yo‘nalishda tashkil qilindi. Birinchisi, fermerlar va to‘qimachilik korxonalari o‘rtasida bevosita shartnoma. Ikkinchi, salmog‘i yuqori bo‘lgan to‘qimachilik korxonalari fermerlikni o‘zi shakllantirmoqda.

Surxondaryo viloyatida klaster tizimini rivojlantirish uchun tashkil etilgan 10 ta paxta-to‘qimachilik klasterlariga jami 72370 gektar yer ajratildi. Paxta va to‘qimachilik faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda 8 ta g‘allachilik klasterlari uchun esa, jami 90800 gektar yer

berildi. Ushbu klasterlar boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarni yetishtirish bilan birga, go‘sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ularni qayta ishlashga ham ixtisoslashtirildi[10].

Jumladan, Surxondaryo viloyatidagi “Bandixon tekstel klaster” MCHJ, “Surxon Kotton Tekstel Klaster Kizirik” MCHJ, Sho‘rchi “INDENIM Culuster” MCHJ singari Tashabbuskor MCHJlar 2021 yilda viloyat agrosanoat sohasida birinchi klaster sifatida tashkil etildi[13].

O‘zbekistonda klasterlarni tashkil natijasida joylardagi fermer xo‘jaliklari yer maydonlarida intensiv texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng jalb etish orqali paxtadan yuqori hosil olish hamda fermer xo‘jaliklari iqtisodiyotini barqarorlashtirishga erishildi. Tashkil etilayotgan klaster tizimi xom ashyo yetishtirishdan uni tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi. Buning natijasida xo‘jaliklar texnik ta’minotini yaxshilash, paxtachilikdagi ilg‘or usullarni joriy qilish orqali yil yakunida ajratilgan yer maydonlaridan belgilangan rejadan ko‘proq paxta hosili yig‘ib olindi. Bundan tashqari, yuqorida nomlari zikr etilgan tashabbuskor klasterlarda paxta hosilini qayta ishlash va tayyor mahsulotga aylantish maqsadida ip-yigiruv fabrikalari qurilishi rejalashtirilgan. Paxta xom ashyosini qayta ishlash natijasida olinadigan tayyor mahsulotning asosiy qismi eksportga yo‘naltiriladi. Bunda qishloq xo‘jaligi, ayniqsa, paxtachilik tarmog‘i sanoatlashadi, davlatning ekport salohiyati ortadi, ish o‘rni ko‘payib, xalqning turmush farovonligi yuksaladi.

Klasterlar faoliyati sustlashuviga tegishli idoralarning aralashuvi ham sabab bo‘lmoqda. Masalan, Vazirlar Mahkamasining «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida»gi nizomga muvofiq yangi paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etiladigan hududlar har yili 20-avgustga qadar mas’ul idoralarning rasmiy veb-saytlarida e’lon qilinishi va arizalar 1-oktabrga qadar ko‘rib chiqilishi belgilangan. Tartibga binoan, faoliyati tugatilayotgan paxta-to‘qimachilik klasterlari tugatilayotgan yildagi mavsum bo‘yicha paxta hosilini to‘liq yig‘ib (sotib) olishga ruxsat beriladi. Xususan, 2019-yilda Jarqo‘rg‘on va Qumqo‘rg‘on tumanlaridagi 15 ming 582 ming gektar yer maydoni “Termiz Jayxun Cluster” klasteriga biriktirib berilgan edi. Klaster tashkil etilganidan buyon barcha investision loyihalar va bank hamda fermer xo‘jaliklari oldidagi majburiyatlarni to‘liq bajarib kelayotgan edi. Ammo 2022-yilning mart oyida paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish respublika komissiyasining yig‘ilish bayoni bilan Qumqo‘rg‘on tumanidagi unga biriktirilgan yerlar boshqa klasterga o‘tkazib yuborildi. Klaster tomonidan tortib olingan yerlarga 2022- yilning hosili uchun 1 noyabrdan fermer xo‘jaliklari bilan f’yuchers shartnomasi imzolab, uni moliyalashtirib, agrotexnika: yer tekislash, shudgorlash, chigit tayyorlash kabi ishlar olib borgan. Ushbu xarajatlar uchun klaster hisobidan 34 milliard 500 million so‘m chiqim qilingan bo‘lsa-da, yer ajratilgan klaster yoki hukumat tomonidan qoplab berilmagan. Buning ustiga hosilni yig‘ib olishga ham ruxsat berilmagan. Achinarli tomoni, klaster ma’muriyati yerni olib qo‘yish sabablarini bilish va o‘z qonuniy manfaatlarini himoya qilishni so‘rab Savdo-sanoat palatasiga, paxta-to‘qimachilik klasterlari uyushmasiga va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga arz qilgan, lekin ularning bari sudga murojaat qilishni tavsiya qilish bilan cheklangan. Yiliga paxta-to‘qimachilik klasterlari uyushmasiga a’zolik badali sifatida 100 million so‘m to‘lagan bo‘lsa-da, uyushma klasterga hech qanday yordam bermagan[14]. Bunday holatlar yerga, mulkka bo‘lgan egalik huquqining poymol etilishi va ishbilarmonlarning moddiy qiziqishi susayishiga sabab bo‘lmoqda.

Xulosa qilganda, bugungi qishloq xo‘jalik taraqqiyotida fermer xo‘jaliklari va klaster tizimining o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlamoq lozim. Zero xo‘jaliklarning ushbu shakllari moddiy manfaatdorlik asosida qurilib, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi. Viloyatning barcha tumanlarida amalga oshirilayotgan agroklaster tizimi tuman iqtisodiyotiga munosib hissa qo‘shishi bilan birga qishloq xo‘jaligi

mehnatkashlari turmush darajasini ko‘tarilishiga zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.04.2019 y., 06/19/5708/2962-son.
2. Karimov I.A. Bunyodkor xalqimiz azmu shijoatining amaldagi ifodasi. Asarlar to‘plami, 15 jild. –Toshkent: O‘zbekiston. –2007. –B. 162.
3. Norqobilov A., Alimov Ch. Yurtparvarlar yurti: Qiziriq tumani hayotidan lavhalar. – B. 34
4. O‘zbekiston Milliy arxivi, 1619-fond, 2-ro‘yxat, 62-hujjat, 154-varaq.
5. Qishloq xujaligida klaster tizimini rivojlantirish: tajribalar, natijalar va istikbolli yunalishlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2019 yil 24 may: - Buxoro : “Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2019. –B. 3.
6. Surxondaryo viloyat hokimligi Iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi. Ikkinchi kitob. –Termiz, 2010. –B. 48.
7. Surxondaryo viloyat hokimligi Iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmasi. Ikkinchi kitob. –Termiz, 2010. –B. 32, 52.
8. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi. 4-bayonnoma, 13-hujjat, 2004 yil, 2 fevral. –B. 3.
9. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi. 6-bayonnoma, 3-hujjat, 2010 yil, 10 iyun. –B. 43.
10. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 1-bayonnoma, 1-hujjat, 2020 yil, 5-yanvar. –B. 8.
11. Jarqo‘rg‘on tuman hokimiyati joriy arxivi. 2000-2010 yillar. 4-kitob. –B.13.
12. «Surxon tongi» gazetasi. 2009 yil 18 may.
13. https://adolat.uz/news/klaster-iqtisodiyotning-barcha-tarmogi-uchun-istiqbol-nashidasi
14. https://daryo.uz/k/2022/09/19/surxondaryoda-klasterga-biriktirilgan-yerlar-qonunga-zid-ravishda-olib-qoyilgani-aytilmoqda/

SURXONDARYO VILOYATIDA TIBBIYOT TIZIMINI KADRLAR BILAN TA’MINLASH MUAMMOLARI VA TIZIMDAGI ISLOHOTLAR

Xujanazarov Absalom Ziyadullayevich,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida tibbiyot tizimini kadrlar bilan ta’minlash muammolari va tizimdagi islohotlar masalasi yoritilgan. Shuningdek, aynan tibbiyot sohasida mutaxassislar tayyorlash jarayonida viloyatda amalga oshirilgan tizimli ishlar, shu asosda tibbiy kadrlar soni va salmog‘ini oshirish sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiyot sohasi, kadrlar tayyorlash, shifokor, hamshiralar, tibbiy-sanitariya xodimlari, tor doiradagi mutaxassislar, davolash profilaktika muassasalari.

Аннотация. В статье описаны проблемы кадрового обеспечения медицинской системы Сурхандарьинской области в годы независимости и реформирования системы. Также была описана системная работа, проводимая в регионе при подготовке специалистов в области медицины, и принимаемые на этой основе меры в сфере увеличения численности и веса медицинских кадров.

Ключевые слова: медицинская сфера, подготовка кадров, врач, средний медицинский персонал, медико-санитарные работники, узкий круг специалистов, лечебно-профилактические